



## XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

YANGI TOMDI QURG'ONI +998 94 375 1465 r.sibayevtomdikengash@nv.uz

2024-yil 27-dekabr

VII-2-022-5-75-K/24

Tomdi tumani

### **Tomdi tumanining 2025 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiysi to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga muvofiq hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-3-025-5-0-K/24-sonli qarorini inobatga olib, xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-3-025-5-0-K/24 qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-3-025-5-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, Tomdi tumanining tuman mahalliy byudjetining 2024 yil uchun daromadlari 61190220,0 ming so‘m, xarajatlari 61190220,0 ming so‘mga tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2025 yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognози 1-ilovaga muvofiq; 2025 yil uchun tumanning tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2025 yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Tomdi tumani bo‘yicha G‘aznachilik bo‘limi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin;

2025 yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognози 4-ilovaga muvofiq;

2025 yil uchun tumanning tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2025 yil uchun tumanning tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 583132,0 ming so‘m miqdorida belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Belgilab qo‘yilsinki, tuman byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetining zaxira jamg‘armasi miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

5. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2025 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2025 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratasiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

noruda kurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun solik;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

yuridik shaxslardan olinadigan yer soliq, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Madenov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Abdimalikov), Davlat soliq inspeksiyasi (Q.Xolmuminov) va mas‘ul tashkilot, muassasalar bilan birgalikda:

tegishli byudjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjetining prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas‘uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining to‘liq tushumini ta‘minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘srimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

7. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Q.Xolmuminov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta‘minlash hamda ushbu soliq to‘lolari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

mazkur yo'nalishda jaoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsinlar.

Bunda, xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'inining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

Kadastr agentligi tuman bo'limi (O.Hamdamov) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulkulari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlasin.

8. Tuman hokimining birinchi o'rribosari (O.Madenov), tuman davlat soliq inspeksiysi (Q.Xolmuminov):

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo'yicha xatlovlar o'tkazish;

xatlov natijalari bo'yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan "marksheydrlik" xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo'yilsin.

9. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (S.Aytbayev) ovul fuqarolar yig'inalri bilan birgalikda jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko'rsatsin.

10. Xalq deputatlari viloyat Kengashning mahalliy byudjet, iqtisod islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (T.Tishkanbayev):

mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligidagi to'liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatishga, natijalari bo'yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishiда ishtirot etadi va ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

11. Tuman hokimining birinchi o'rribosari (O.Madenov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (R.Sibayev), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Abdimalikov):

tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirotkini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas'ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'yektlar ro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

12. Tuman hokimining birinchi o'rribbosari (O.Madenov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati va tegishli tashkilot, muassasa rahbarlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

13. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

14. Mazkur qaror "Tamdi sharuageri" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

15. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

16. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlarituman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



UMAROV  
ORZUMUROD  
FAYZULLAYEVICH

Xalq deputatlari Tomdi tumani  
 Kengashining  
 2024-yil 27-dekabrdagi  
 VII-2-022-5-75-K/24 -son qaroriga  
 1-ilova

### **2025 yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi**

<b>Nº</b>	<b>Daromad turlari</b>	<i>ming so 'm</i>
<b>I.</b>	<b>Rag'batlantiruvchi daromadlar Mahalliy</b>	<b>59 626 220</b>
<b>1</b>	<b>Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i</b>	<b>27 722 000</b>
	MRI	10 839 000
	<i>ajratma me'yori</i>	<i>0%</i>
	DSB	16 883 000
	<i>ajratma me'yori</i>	<i>50%</i>
	mahalliy byudjetga TM	8 441 500
	mahalliy byudjetga VB	9 855 020
<b>2</b>	<b>Foyda solig'i</b>	<b>17 230 000</b>
	MRI	0
	<i>ajratma me'yori</i>	
	DSB	17 230 000
	<i>ajratma me'yori</i>	
	mahalliy byudjetga TM	0
	mahalliy byudjetga VB	12 061 000
<b>3</b>	<b>benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i</b>	<b>183 000</b>
	MRI	0
	<i>ajratma me'yori</i>	<i>0%</i>
	DSB	183 000
	<i>ajratma me'yori</i>	<i>0%</i>
	mahalliy byudjetga TM	0
	mahalliy byudjetga VB	183 000
<b>4</b>	<b>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq</b>	<b>89 748 000</b>
	MRI	89 578 000
	<i>ajratma me'yori</i>	<i>0%</i>
	DSB	170 000
	<i>ajratma me'yori</i>	<i>100%</i>
	mahalliy byudjetga TM	170 000
	mahalliy byudjetga VB	89 578 000
<b>5</b>	<b>Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i</b>	<b>38 617 000</b>
	MRI	33 397 000
	<i>ajratma me'yori</i>	<i>0%</i>
	DSB	5 220 000
	<i>ajratma me'yori</i>	<i>100%</i>
	mahalliy byudjetga TM	5 220 000
	mahalliy byudjetga VB	33 397 000
<b>6</b>	<b>Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq</b>	<b>4 899 000</b>
	MRI	3 799 000
	<i>ajratma me'yori</i>	<i>100%</i>

	DSB	1 100 000
	<i>ajratma me'yori</i>	100%
	mahalliy byudjetga TM	4 899 000
	mahalliy byudjetga VB	0
7	<b>Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq</b>	<b>58 270 000</b>
	MRI	58 254 000
	<i>ajratma me'yori</i>	68%
	DSB	16 000
	<i>ajratma me'yori</i>	100%
	Qishloq xo'jaligi korxonalari suv soligining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	0
	mahalliy byudjetga TM	39 628 720
	mahalliy byudjetga VB	18 641 280
8	<b>Aylanmadan olinadigan soliq</b>	<b>1 267 000</b>
	MRI	0
	<i>ajratma me'yori</i>	0%
	DSB	1 267 000
	<i>ajratma me'yori</i>	100%
	mahalliy byudjetga TM	1 267 000
	mahalliy byudjetga VB	0
9	<b>Davlat ulushi bo'yicha dividendlar</b>	<b>0</b>
	MRI	0
	<i>ajratma me'yori</i>	0%
	DSB	0
	<i>ajratma me'yori</i>	
	mahalliy byudjetga TM	0
	mahalliy byudjetga VB	0
II.	<b>Biriktirilgan daromadlar jami</b>	<b>1 564 000</b>
2,0	<b>Biriktirilgan daromadlar</b>	<b>1 564 000</b>
2,1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	0
2,2	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	750 000
2,3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	800 000
3,4	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	14 000
3,0	<b>Soliqsiz va boshqa daromadlar</b>	<b>0</b>
3,1	<b>Davlat boji</b>	<b>380 000</b>
	<i>ajratma me'yori</i>	0%
	mahalliy byudjetga TM	0
	mahalliy byudjetga VB	380 000
3,2	<b>Yig'imlar</b>	<b>2 105 000</b>
	<i>ajratma me'yori</i>	0%
	mahalliy byudjetga TM	0
	mahalliy byudjetga VB	2 105 000
3,3	<b>Jarimalar</b>	<b>1 895 000</b>
	<i>ajratma me'yori</i>	0%
	mahalliy byudjetga TM	0
	mahalliy byudjetga VB	1 895 000
III.	<b>MAHALLIY BYUDJETLAR JAMI DAROMADLARI</b>	<b>61 190 220</b>
IV.	<b>MAHALLIY BYUDJETLAR JAMI XARAJATLARI</b>	<b>61 190 220</b>

Xalq deputatlari Tomdi tumani  
 Kengashining  
 2024-yil 27-dekabrdagi  
 VII-2-022-5-75-K/24 -son qaroriga  
 2-ilova

**2025 yil uchun tumanning tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini  
 taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari**

*ming so ‘m*

<b>Ko‘rsatkichlar</b>		<b>Tomdi tumani</b>
	<b>Xarajatlar - jami</b>	<b>61 190 220,0</b>
1	- maktabgacha ta’lim	2 995 267,0
	- umumiy ta’lim	10 645 933,0
	<i>Shundan “Mening maktabim” loyihasi</i>	962 992,0
2	Madaniyat	1 724 373,0
3	Sport	2 838 934,0
4	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	71 242,0
5	Obodonlashtirish	12 915 498,0
6	<i>Shundan ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari</i>	4 000 000,0
	<i>Maxsus texnika sotib olish xarajatlari</i>	2 648 000,0
7	Veterinariya qo‘mitasi	769 812,0
8	“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	90 000,0
9	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 724 481,0
11	Tuman Veterinariya bo‘limi	1 254 989,0
12	Tuman Kambag‘ allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 254 185,0
13	Tuman Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi	1 403 191,0
14	Tuman Madaniyat bo‘limi	164 055,0
15	Tuman xokimligi	3 163 008,0
16	Tuman Xalq xabulxonasi	117 511,0
	Tuman Xokim yordamchilari	935 725,0
	Tuman oila va xotin qizlar bo‘limi	395 562,0
	Tuman Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	295 257,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	18 454,0
	Zahira jamg‘armasi	583 132,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	15 866 619,0

Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashining  
 2024-yil 27-dekabrdagi  
 VII-2-022-5-75-K/24 -son qaroriga  
 3-ilova

**2025 yil uchun tuman byudjetiga umum davlat soliqlaridan ajratmalar normativlari**

*Foizda*

T/ R	Tuman nomi	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxs- lardan olinadigan daromad solig'i	Suv resurs- laridan foydalani- ganlik uchun soliq	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalangan- lik uchun soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Aylanmadan olinadigan soliq
1	Tomdi tumani	100	100	50	68	100	100	100	100

Xalq deputatlari Tomdi tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrdagi  
VII-2-022-5-75-K/24 -son qaroriga  
4-ilova

**2025 yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi**

*ming so‘mda*

<b>Hudud nomi</b>	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>
Tomdi tumani	61 190 220,0	61 190 220,0

Xalq deputatlari Tomdi tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrdagi  
VII-2-022-5-75-K/24 -son qaroriga  
5-ilova

**2025 yil uchun tumanning tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan byudjet  
mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori**

*ming so ‘m*

T/R	Hudud nomi	Miqdor
1	Tomdi tumani	240 813,0